

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

3 – kurs talabasi

NURINOVA MOHICHEHRA MIRZAQULOVNA

MAVZU: ABDULLA ORIPOVNING TARJIMONLIK MAHORATI

РЕФЕРАТ

Ilmiy rahbar:

f.f.n. A.Hamdammov

QARSHI – 2014

ABDULLA ORIPOV VA O‘ZBEK TARJIMACHILIK

TARAQQIYOTI

REJA

Kirish	3
1. Dante va uning “Ilohiy komediya” asari haqida	5
2. Dante va Abdulla Oripov ijodiy ruhiy uygʻunligi	20
3. Umumiy xulosa	29
4. Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati	31

Kirish

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgach xalqimizning boy va qadimiy madaniy merosi, urf-odat, an'ana va milliy qadriyatlarini o'rganish va qayta tiklashga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Mustaqilligimizning ilk yillaridayoq xalqimiz ma'naviyatining asos-manbalaridan bo'lgan diniy-ma'rifiy mazmundagi asarlarni chuqur o'rganish, ularning tarjima, sharh, nashr tahlil hamda davr talablari asosidagi talqinlarini amalga oshirish dolzarb xususiyat kasb etib kelmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qadriyatlarining mezonidir"¹.

Darhaqiqat, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda o'zbek tarjima adabiyotining ham o'rni beqiyosdir.

Nodir va durdona asarlarini o'zbek tiliga o'girish, shu asosda ularni adabiyotimiz va ma'naviyatimiz xazinasining bebaho boyligiga aylantirish juda qadimiy an'anaga egadir. Bugungi kunda o'zining serqirra va sermahsul tarjimonlik faoliyati bilan o'zbek tarjimachilik adabiyotini rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli shoir, tarjimon, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovdir. Uning tarjimachilik sohasidagi jo'shqin faoliyati o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan edi. Mohir tarjimonning bu sohadagi faoliyatining cho'qqisi A.Dantening "Ilohiy komediya" asarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi deb aytish mumkin. "Ilohiy komediya" asari jahon adabiyotining eng muhim masalalari xususida bahs yuritadigan buyuk asardir. Bu asarning o'zbek tiliga mahorat bilan o'girilishi xalqimizning ma'naviy erishgan yutug'laridan biri bo'lib, shoir ijodining ana shu qirrasi yuzasidan, aytarli biror tadqiqot qilinmagan..

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. Тошкент 2008. Б.171.

Referat ishining mavzusiga ana shu talab va mezonlar nuqtai nazaridan qaraganda uning dolzarb ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir masalalarining muhim ko‘rinishidan biri hisoblangan badiiy tarjimachilikning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zbek adabiyotida tarjimachilik taraqqiyotining bosqichlari haqida va umuman, uning adabiyotimiz rivojidadagi o‘rni xususida ayrim fikr mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Badiiy tarjimachilik bugungi kunda ham dolzarblik xususiyat kasb etib kelmoqda. Jahon adabiyotining nodir namunalarining o‘zbek tiliga o‘girilishida Abdulla Qahhor, E.Vohidov, M. Shayxzoda, O.Sharafiddinov, Jamol Kamollar bilan bir qatorda Abdulla Oripovning tarjimonlik faoliyati muhim o‘rin tutadi. O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy tarjimachilik haqidagi V.Abdullayev, V.Zohidov, O.Sharafiddinov, N.Mallayev, N.Komilov, G‘.Salomov va boshqalarning tadqiqotlarida qiziqarli ma’lumotlar berib o‘tilgan. Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati, ayniqsa, uning ”Ilohiy komediya” tarjimasi bilan bog‘liq ayrim fikr-qarashlar M.Qo‘shjonov, G‘.Salomov, O.Sharafiddinov, N.Rahimjonov, S.Meliyevlarning maqolalarida ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiyotshunosligi va tarjimashunosligida Abdulla Oripovning tarjimonlik faoliyati monografik tarzda tadqiq etilmagan. Shundan kelib chiqib ishda ”Ilohiy komediya” asari tarjimasi misolida Abdulla Oripovning tarjimonlik mahoratini o‘rganish, tahlil va talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

ABDULLA ORIPOV VA O‘ZBEK TARJIMACHILIK TARAQQIYOTI

1. Dante va uning “Ilohiy komediya” asari haqida

Tarjima so‘z san‘ati rivojini belgilaydigan muhim omillardan biridir. Irqi va dini, o‘y-qarashlari farqli bo‘lgan el-elatlar orasidagi makon va zamon chegaralarini, so‘zsiz, tarjima orqali yengib o‘tish mumkin. Binobarin, tarjima uchun umumbashariy g‘oya-fikrlarni o‘zida mujassam etgan asarlar tanlanishi tarjimon muvaffaqiyatini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, mahorat bilan amalga oshirilgan tarjima nafaqat asar muallifini, balki tarjima muallifini ham mashhur qiladi. Demak, tarjima jarayoni bilan bog‘liq mashaqqatli mehnat tarjimonga asarga qayta jon bag‘ishlovchi ikkinchi muallif maqomini beradi. Bu esa tarjimon oldidagi mas‘uliyat nechog‘lik ulkan ekanligini ko‘rsatadi. Tarjima uchun yuksak umumbashariy g‘oyalar bilan sug‘orilgan asar tanlash u qadar mushkillik tug‘dirmas, biroq uning tarjimasi bilan bog‘liq mas‘uliyat susaysa, nafaqat tarjimon, balki asar muallifi haqida ham biryoqlama taassurot paydo bo‘lishi muqarrar. Bu jarayonda asarning asliyatdagi va tarjimadagi namunalarini qiyoslash muallif va tarjimon mahorati haqida birdek fikr aytish imkonini beradi.

Ma’lumki, o‘zbek adabiyotida jahon adabiyoti durdonalarining go‘zal namunalarini tarjima qilish qadimiy an‘analarga egadir. Ayniqsa, boshqa tilda yaratilgan durdona asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish, adabiy aloqa va tasvir talablari asosida unga izdoshlik qilish, umuman, sharq adabiyotidagi an‘anaviylik va izdoshlik talablari asosida ish ko‘rish, ijod qilish va barkamol asar yaratib adabiyot taraqqiyotiga samarali ta’sir o‘tkazish o‘tgan asrlarda keng miqyosda davom ettirilgan va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Umuman olganda, tarjima adabiy aloqa va o‘zaro ta’sirning eng faol, eng ommalashgan va eng mahsuldor shaklidir.

“Tarjima do‘stlik ilmidir, tarjima o‘zgani birodar, tanishni qadrdon, do‘stni qarindosh qiladi”,-deb yozgan edi o‘zbek tarjimashunosi Sh. SHermuhamedov.

Shu bilan bir qatorda, tarjima, ayni paytda san’atdir. San’at bo‘lganda ham san’atning oddiy turlaridan emas. Tarjima bamisoli sehrgarlik san’atidir. Zero, tarjima ijod ahli uchun darsxonasi keng bo‘lgan “adabiy, shaxsiy, mahorat maktabidir”. Shuning uchun ham jahon adabiyoti tarixida, uning boyish, yangi-yangi asarlar evaziga mazmundor bo‘lishida tarjima va tarjimonlarning ulushi benihoya salmoqlidir.

Ko‘ngillar aro ko‘prik vazifasini o‘tayotgan tarjima-adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir tarixida ham nurli sahifalarni tashkil etadi. Necha yuz yillar davomida tarjima tufayli bir adabiyotda paydo bo‘lgan asar jahon kezadi, million-million qalblarga shavqu surur, estetik zavq bag‘ishlaydi, ma’naviy oziq beradi, ajoyib va original asarlarning bunyodga kelishiga ijobiy hissa qo‘shadi. Hofiz va Sa’diy, Jomiy va Navoiy she’riyati bilan G‘arbni, SHEkspir va Balzak, Dante va Gyotening mo‘jizakor asarlari bilan Sharq kitobxonlarini ham oshno etgan, ularning qalbida junbush uyg‘otgan, badiiy so‘z san’atining qudrati va quvvatini namoyish etgan ham ana o‘sha tarjimalardir.

XX asrga kelib Sharq va G‘arb adabiyoti namunalarini o‘zbek tiliga o‘girishga katta e’tibor qaratildi. Qizig‘i shundaki, jahon va G‘arb adabiyoti namunalarining tarjimasi ko‘proq bevosita emas, balki bilvosita amalga oshiriladigan bo‘ldi. YA’ni bu asarlar chet tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki rus tili va asliyat orqali tarjima qilinadigan bo‘ldi. Hatto ayrim qardosh xalqlar adabiyoti namunalarini ham rus tili orqali tarjima qilinishi bu holatning noxush an’anaga aylanishini anglatar edi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarjimachilik sohasida ham keskin o‘zgarishlarni sodir bo‘lishiga olib keldi. Sharq va G‘arb adabiyotiga

tegishli bo'lgan, umuman olganda, jahon adabiyotining nodir namunalari asliyatidan endi to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga o'giriladigan, eng muhimi asl manbaning ma'no-mazmunining ikki karra talofat ko'rishini oldini oldi. Hozirda esa ingliz, nemis, fransuz, koreys, arab, hind va boshqa ko'plab jahon xalqlari tillarida yaratilgan noyob va muhtasham adabiy-badiiy obidalarini o'zbek tiliga o'g'irish orqali xalqimizning ma'naviy va madaniy hayotida muhim yangiliklar yaratish an'anaviy tusga kirib bormoqda.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov ijodiy izlanishlarining muhim qanoti uning o'zbek tarjimachilik san'atini rivojlantirish yo'lidagi ko'p qirrali faoliyatiga daxldordir. Bugungi o'zbek tarjima san'atining rivoji haqida gap ketganda, bu sohada g'ayrat ko'rsatayotgan fidoiylar safini avvalida Abdulla Oripov nomining e'tirof etilishi g'oyat tabiiydir. Zotan, shoir iqtidori, ko'p yillik zahmatli izlanishlari mahsuli sifatida dunyoga kelgan, jahonning turli tillarida yaratilgan asarlar tarjimasi nafaqat shoir ijodiy yo'liga ko'rk bo'lib qo'shilgan, balki o'zbek kitobxonlari ma'naviy xazinasining qator nodir va muqaddas durdonalar hisobiga to'lishishiga zamin yaratdi.

Xo'sh, mo'tadil nasr yoxud nazm o'zaniga tushib olgan ijodkorni tarjima maydoniga yetaklaydigan kuch, ma'naviy omil nimada? Ko'p asrlik mumtoz adabiyotimiz shuningdek, XX asr o'zbek realistik adabiyoti tarixiga nazar solish orqali bu savolga yetarlicha javob olish mumkin. Binobarin, biror xalqqa mansub ijodkor o'zga millat yoxud xalq adabiyoti namunasi tarjimasiga, avvalo, ma'naviy ehtiyoj – o'z xalqi kitobxonlarini o'zga xalqlarning nodir asar mo'jizalaridan bahramand etish maqsadida qo'l uradi. Bunga zamin yaratadigan ikkinchi omil esa, ijod jarayoniga daxldor. Inchunun, tarjimaga ayniqsa, she'riy asar tarjimasiga bo'lgan mayl shoir ijodiy laboratoriyasida keng miqyosli tafakkur imkoniyatlarini shakllanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. Buning uchun shoir ijodida turli mavzudagi ixcham hajmli she'rlaridan voqeaband she'rlar yaratishga,

keyinroq ballada va dostonlar mashqiga tadrijiy tarzda o'tish jarayoni kechmog'i lozim. Ayni shu mashq maydonida orttirilgan tajriba ijodkorga yirik hajmli epik va liro-epik polotnolar yaratish g'ayratini baxsh etadiki, badiiy ijod tabiatiga xos bu bezavol imkoniyat va qudratni zamonaviy she'riyatimiz yalovbardorlari Abdulla Oripov, Erkin Vohidov adabiy izlanishlari misolida yaqqol kuzatish mumkin. Erkin Vohidovning "Faust", Abdulla Oripovning "Ilohiy komediya" tarjimasigacha bo'lgan masofani ko'plab she'r va dostonlar mashqi ila bosib o'tganliklari ilm ahliga yaxshi ma'lum. Bu fikrlar Abdulla Oripov ijodiy intilishlariga ham daxldor bo'lib, adibning eng yirik va sara tarjimalarini qator voqeaband she'rlar, "Jannatga yo'l" dramatik dostonini tarjima jarayonida orttirilgan tafakkur majmui sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Shoirning tarjimonlik faoliyati rus shoirasi Lesya Ukrainkaning "Mag'oralarda", Yenyo Xeltaining "Soqov ritsar" she'riy dramalarini rus tilidan o'zbekchaga o'girish asosida boshlanib, keyingi yillarda ulkan va rang-barang miqyoslarni zabt etdi. Bu serqirra faoliyati bilan mohir tarjimon italyanchadan Mixail Lozinskiy tarjima qilgan Dantening "Ilohiy komediya" asarini 1975 yilda o'zbek tiliga ugirdi.

Insoniyat madaniyat taraqqiyotining mahsuli bo'lgan buyuk so'z ustalarining biri Dante Aligyeri. Uning asli ismi Durante familiyasi Aligyeridir. U 1265 yilning may oyida kambag'allashib qolgan aslzoda oilasida dunyoga keladi. Yoshligida u diniy maktabda o'qib, keyin Bolonya universitetida tahsil olgan deb hisoblaydilar. Umr bo'yi falsafa, axloq, ilohiyot, tarix, mantiq va turli xalqlar adabiyotini mustaqil ravishda o'rgangan. U zamonasining eng bilimdon kishilaridan biri hisoblangan. Florensiyaning siyosiy hayotida faol ishtirok etgan shoirni 1302 yil g'olib chiqqan "qoralar" ona shahridan surgun qiladilar va u hayotining so'nggi 19 yilini sarson-sargardonlikda o'tkazadi. Dante 1321 yil 14 sentabrda Ravennada vafot etadi. Shimoliy Italiyada badiiy adabiyot XIII asrgacha

lotin tilida yaratilgan. XII asr oxiri XIII asr boshlarida Sitsiliyada rivojlangan milliy tildagi she'riyatda folklor elementlari kuchli edi. Bu she'riyatning eng ko'p tarqalgan janrlari lauda, serventiza, va kontrast deb atalib, ularning yaratuvchilari janubiy Fransiya, Sitsiliya va Italiyada ko'chib yuruvchi sayyoh shoirlar edi. Umuman she'rlarni bayt, bandga bo'lish qofiya tizimi Yevropa adabiyotiga yot bo'lib Ispaniya orqali Sharqdan o'tgan.

Dantega shuhrat keltirgan birinchi asar 1291-1292 yillarda tuzilgan va Beatrichega bag'ishlangan "Yangi hayot" she'rlar to'plami bo'lib, u Yevropa adabiyoti tarixida birinchi avtobiografik asardir. To'plam nasriy hikoyalar bilan bog'langan 30 ta she'rdan iborat. She'rlar 1283-1291 yillarda yozilgan bo'lib, xronologik tartibda joylashtirilgan. Dantening butun ijodi Beatrice ismli qiz bilan bog'liq. Beatrice shoirning otasiga yaqin kishining qizi bo'lib, to'qqiz yoshli bo'lajak shoir sakkiz yashar qizchani ko'rib, butun umr bo'yi uning maftuni bo'ladi. Beatrice lolarang libosda edi. Shu kundan boshlab Dante ishq ma'budi Amorning bandasiga aylandi. Dante Beatricheni hammasi bo'lib besh marta ko'rgan, xolos. Shoirning unga bo'lgan muhabbati inson haqidagi oliy ideal bilan bog'liq bo'lib, unga uylanishni xayoliga ham keltirmagan, unga uylanishni shakkoklik deb bilgan. Beatrice boshqa odam bilan turmush qurib, 1290 yili 24 yoshida vafot etadi. Shoirning Beatrichega bo'lgan muhabbati keyinchalik ilohiy mazmun kasb etib, Dante ijodining hamma bosqichlarida eng oliy insoniy ideallar timsoli sifatida talqin qilinadi. Oradan to'qqiz yil o'tgach shoir mahbubasini ko'chada qordek oppoq libosda uchratadi, qiz shoirga salom beradi. Beatrichening salomi, ta'zimi yosh shoirni mutloq maftun etadi, ruhiga baxt-saodat baxsh etadi. Bundan keyingi bir necha yilni shu uchrashuv ta'sirida o'tkazadi. Uchrashuv kechasi shoir tushida ishq ma'budi Amor olov rangli bulut ichida Beatricheni olib ketayotgani va uxlab yotgan shoirning yuragini unga majburan yedirayotgani va uni osmoga uchirib olib ketayotganini ko'radi. Shoir

uygʻonib “Oshiq qalblarga...” deb boshlanuvchi sonetini yozadi. Beatriche vafotidan keyin Dantening ishqqa boʻlgan munosabatida oʻzgarish yuz beradi. Toʻplamning birinchi qismida Dante Beatrichega oshiq, uning yagona orzusi mahbubasini koʻrish, rohat bagʻishlovchi salomini eshitish boʻlgan, xolos. Shoir Beatricheni eng oliy fazilatlar egasi, iffatli inson sifatida tasvirlaydi. Quyosh borliqqa nur sochganidek, u ham muhabbat, marhamat, mehr-shafqat, fazilat, oliy axloq, odob, umuman insonga xos boʻlgan eng oliy xususiyatlar nurini sochadi. Eng muhimi bu xususiyatlardan atrofdagilarni bahramand qiladi, ularni axloqiy va aqliy yetuklikka erishuvga chorlaydi:

Goʻzalligini namoyon etib kimning oldidan oʻtsa, U odam poklanadi yoki hayotdan koʻz yumadi; Kimni u arzigulik deb hisoblasa, Unga yaqinlashsa, uni baxt sarosimaga soladi. Kimgaki xushmuomalalik bilan salom bersa, Uning qalbi poklanib, hamma alamlarni esdan chiqaradi, Alloh unga hukmdorlik kuchini bergan: Kimki biror marta uning soʻzini bajarsa yovuzlikda oʻlmaydi.

Beatriche Alloh yaratgan moʻjiza, unga yaqin boʻlishni orzu qilish shakkoklik, gʻayritabiiy orzudir. Dantening “Yangi hayot” toʻplami Yevropa adabiyoti tarixidagi birinchi psixologik asardir. Dante Beatrichening vafotiga mistik maʼno beradi. Isaviya dini taʼlimotida borliq “3” raqami asosida yaratilgan (osmon, yer, oraliq), Alloh, Iso ham uchlik (Ota Xudo, Oʻgʻil Xudo va xudoning Onasi) asosida vujudga kelgan. Uch marotaba uch toʻqqiz, yaʼni toʻqqiz qavat osmon. Shoir mahbubasining vafotini muqaddas “9” raqami bilan bogʻlaydi. Shoir bu raqamni chiqarish uchun Sharq xalqlari yilnomasiga murojaat etadi. Haqiqatdan Qurʼonda “9” raqamiga alohida eʼtibor beriladi. Islomiy karomati kabi bidʼat oqimlar ham “9” ni muqaddas raqam deb hisoblaydilar. Bu oʻrinda koinot sayyora va yulduzlar harakati masalasida Dante Ahmad Fargʻoniyning “Kitob al-harakat as-samoviya va javomi ilm an-nujum” dan foydalanadi.

Dante 1304-1308 yillarda Beatriche xotirasiga bag‘ishlangan ilmiy- falsafiy risolasi “Ziyofat”, filologiyaga oid “Xalq nutqi”, siyosiy qarashlar ifodasi bo‘lmish “Monarxiya” asarlarini yaratdi. “Ziyofat” tuzilishi jihatdan “Yangi hayot” ga o‘xshaydi. Asarda 14 ta kansonani (milliy kolorit saqlanib yozilgan sodda musiqa asari. O‘rta asr Italyan poeziyasidagi lirik she‘r), 15 ta nasriy risolani sharhlab berishi lozim edi. Lekin faqat 3 ta kansona va 4 ta ilmiy–nasriy sharh yozilgan xolos. Ularda o‘rta asr dunyoqarashi, ba’zi o‘rinlarda esa Sharq olimlari, lotin averroistchilari va Isaviya dini ta’limotini Sharqdan kelgan yangi ilmiy ta’limot yutuqlari bilan boyitishga uringan. Buyuk Albert va Foma qarashlari doirasida din, axloq, falakiyot ilmi, odamiylik, ishq, baxt, ruh va ong haqida fikr yuritiladi. Shoir oliy insoniy xususiyatlar, ayniqsa saxiylik, oliyjanoblik haqida fikr yuritar ekan Ibn Sino va G‘azzoliy fikrlariga suyanadi. “Birinchidan, — deb yozadi u, — inson ruh va tanadan iborat; saxiylik ruh bilan bog‘liq. To‘g‘ri bu haqda turli faylasuflar, turli fikrlarni bayon qiladilar. Avitsenna va Algazel ruhlar dastlab yaratishdan fazilatli yoki qabih bo‘ladilar”. Bu fikrni aslida Mansur Halloj aytgan bo‘lib, keyinchalik G‘azzoliy tomonidan takrorlangan. Bu o‘rinda Dante yuqorida aytilganidek Isaviya diniga taalluqli olimlar asarlaridan foydalangan bo‘lsa kerak. Dante inson umrini to‘rt faslga bo‘ladi:

A) Yoshlik: u issiqlik va namlikka monand;

B) Balog‘at: unga issiqligu va quruqlik xos;

V) Keksalik: unda sovuqlik va quruqlik bor;

G) Qartayish: unda sovuqlik va namlik bor.

“Ziyofat” asarining ikkinchi bobida Dante Farg‘oniyga suyangan holda “Zuhra” sayyorasining yil hisobini to‘g‘ri chiqaradi, ya’ni 1168 yer sutkasiga tenglashtiradi. Yoki ikkinchi o‘rinda Yer bilan “Zuhra” sayyorasi o‘rtasidagi masofani Farg‘oniy hisobiga suyangan holda “167 yer radiusi” ya’ni 542750 milga ya’ni 40272050 km ga barobardir deydi. “Yangi hayot” to‘plamida esa Beatriche vafoti kunini ham Farg‘oniy risolasida keltirilgan suryoniy yilnomasi asosida aniqlaydi. Saturnning epitsentrik harakati hisobini chiqarishda ham vatandoshimiz

asariga suyanadi. Dastlabki narigi dunyo haqidagi tasavvur zardushtiylik dinida ishlab chiqilgan bo'lib, u dunyo jannat, a'rof va do'zaxdan iborat, vafot etgan insonlar bu dunyodagi qilmishlariga binoan marhamat yoki jazo topadilar deyilib, unda uchchala qism tafsiloti berilgan edi. Narigi dunyo haqidagi zardushtiylik ta'limoti iudaizm, isaviya va islom dinlari tomonidan umumiy tarzda qabul qilingan edi. Ammo jannat, a'rof, do'zax qanday qurilgan, kimlar qaysi qismga borishga hukm qilinadi, qanday gunohlar uchun qanaqa jazo olinadi, a'rof, jannatga kimlar kiradi, jannat rohati qay yo'sin ekanligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q edi. Dantening o'ta boy fantaziyasi narigi dunyoni shunchalik aniq tasvirlab beradiki, jahon adabiyotining biror namunasi, hatto Sharq afsonalari, antik dunyo miflari ham unga teng kelolmaydi. Dante asarini «Komediya» deb atagan, chunki o'rta asrlarda milliy tilda yozilgan va yaxshilik bilan tugallangan har qanday asar, janridan qat'iy nazar komediya deb atalgan. Keyinchalik Bokkachcho asarning mohiyati jihatidan «ilohiy» sifatini qo'shgan. Shundan beri doston «Ilohiy komediya» deb ataladi. Doston narigi dunyoning uch qismini tasvirlovchi «Do'zax», «A'rof», va «Jannat» qismlariga bo'linib, har qismi kantika deb ataladi. Bu atamani dastavval Ibn Sinoning «Urjuza» sini kremonalik Xerardo lotin tiliga tarjima qilganda qo'llab, asarni «Cantica de Nedicina» deb atagan. Dante Xerardo qo'llagan atamadan foydalanadi. Doston 100 ta she'rdan iborat. She'rlar uchliklar shaklida yozilgan. Dostonning har uchala qismi hajmi jihatidan bir xil, 33 she'rdan iborat. Shoir o'z homiysi Della Sakalaga yozgan xatida doston to'rt ma'noga ega ekanini aytadi:

*Aynan ma'nosi–insonlarning narigi dunyodagi taqdiri;
Majoziy ma'nosi–bu dunyoda qilgan ishiga yarasha jazo yoki rohat topishi;
Axloqiy ma'nosi–insonni yomon yo'ldan qaytarish va yaxshilikka boshlash;
Yashirin ma'nosi–Beatrichega bo'lgan muhabbatning shunday asar yaratishga
ilhomlantirgan farog'at kuchini kuylashdir.*

«Ilohiy komediya» ning voqeasi murakkab emas: xayolida quyuq o'rmonda adashib qolgan Dantega uch yirtqich: arslon, bo'ri va qoplonga yo'liqadi. Ulardan

qutulishni bilmay sarosimaga tushib turgan shoirning oldiga Vergiliy keladi. Antik shoir Danteni bu balolardan qutqarib, uni oxir dunyoning uch qismi bilan tanishtirish haqida oliy buyruq bo'lganini aytadi. Ustoz Danteni yetaklab do'zaxning to'qqiz qavati, undagi jazolanuvchi gunohkorlar, ularning tarixi, jazolarning turlari bilan tanishtiradi. Jahannamning to'qqizinchi qavatida jannatdan quvilgan Iblis tuzda abadiy to'ng'igan holatda. Uning yunglaridan shoirlar zinapoya sifatida foydalanib, yorug' dunyoga, okean o'rtasida joylashgan a'roftog'i oldidan chiqadilar. Ikkala shoirni antik mifda ham shu vazifani bajaruvchi Xaron qayiqda tog' etaklariga eltadi. Vergiliy a'roftoda ham Dantega yo'l boshchilik qiladi.

Yangi zamonning birinchi vakili bo'lgan Dante shoir, olim, faylasuflar hatto ba'zi lashkarboshilar uchun Do'zaxning birinchi qavatida, darboza oldida ma'lum joy (Lamb) yaratadi. Lamb moviy bulut ichida yorug' nurda joylashgan ajoyib qasr bo'lib, unda isaviya dinidan avval yashagan va o'zining ajoyib merosi bilan insoniyat ma'naviy boyliklarini yaratishda ulkan hissa qo'shgan shoirlar Gomer, Goratsiy, Vergiliy, Ovidiy, Lukan jasur qahramonlar Gektor, Sezar, faylasuflar Sokrat, Platon, Demokritga o'xshaganlar, Misr sultoni Salohiddin va boshqa qator shoir, donishmandlar anjumani tasvirlangan. Unda:

*Hisobdan Evklid, Batlimus, Galen, Gippokrat va Sino, Ibn Ro'shd paydo-
Yangi g'oyalarni tartib etgan chin.*

O'z davrining vakili bo'lgan Sharq falsafasi ta'siri ostida dunyoqarashi shakllangan shoir ustozlari Ibn Sino va Ibn Ro'shdni Lambga joylashtiradi. Majusiy va musulmon donishmandlarini isaviya dini aqidalariga zid o'laroq, jazodan qutqaradi, bu esa Dantega xos bo'lgan yuksak gumanistik dunyoqarash bilan izohlanadi. Lekin Dante tushunchasidagi yuksak insonparvarlikka xilof harakatda bo'lgan antik qahramonlar Odissey (Troyani ishg'ol qilishidagi firibgarligi uchun), mifologik qahramonlar (o'liklar dunyosida xizmat qiluvchi Xaron, Minos, Serber, Minotavr, Yupiterga qarshi chiqqan gigantlar) va yana boshqalar Dante tomonidan do'zax azabiga duchor qilinadi. Do'zaxning

to‘qqizinchi qavati «Kotsit» abadiy muz ko‘lidan iborat, unda xoin va munofiqlar panoh topgan:

Biz u yerda bo‘lganmiz, bu satrlar dahshatli,

U yerda muzli qavatda soyalar shishada shoxcha ko‘ringanidek

Chuqurda bo‘lsa ham ko‘rinadilar.

Ko‘lning ostini Dante “Dit” deb ataydi, unda na shamol, na olov, na harakat bor. Hamma joy shayton Lyutsiferning olti qanoti harakatidan muzlab qolgan, u joyda osmondan quvilib, yerga yiqilishida “A’rof” tog‘i konusini hosil qilgan Lyutsifer-Iblis turadi. Uning uch og‘zida uch xoin “Iuda”, “Brut”, “Kassiy” (Brut va Kassiy Rimda yashagan lashkarboshilar) jazo tortadilar. Dante yaratgan “Iblis” obrazi inson tushunchasidagi eng salbiy, jirkanch xususiyatlarning majoziy ramzi sifatida gavdalanadi. Ma’lum darajada ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lgan Miltonning (1608-1674) “Yo‘qotilgan jannat”idagi isyonkor iblis, Gyotening (1749-1832) “Faust” idagi faylasuf Mefistofel, Lermontovning “Demon” i kabi jahon adabiyoti namunalarida yaratilgan Shayton obrazlaridan Dantening Iblisi ajralib turadi. Dantening ta’biricha, Iblis osmondan yiqilish jarayonida yer qa’rini shunday yorib kirkanki, undan hosil bo‘lgan jahannamda to‘qqiz qavat do‘zax joylashgan, tanasi esa yer kurrasining narigi tomonidan to‘qqiz qavat “A’rof” tog‘ini bo‘rttirib chiqargan. Dante “A’rof” da hali u davrda hech kimning xayoliga kelmagan Janubiy yarim sharning g‘arbidagi yulduzli osmonni tasvirlaydi.

Do‘zaxga zid o‘laroq jannatda doimo harakat hukm suradi. Jannat osmonlarining hammasida yorug‘lik, nur, ruhiy kamolot hukmronlik qiladi. “Jannat” ning so‘nggi uch bobi to‘qqizinchi doira–Empireyning tasviriga bag‘ishlangan. Empireydagi farishtalar koinotni harakatga keltiradilar. Endi Beatriche shoirni avliyo Bernardga topshirib, Bibi Maryam taxti oldida Momohavo yoniga o‘tiradi. “Yangi hayot” da tasvirlangan ishq ma’budi “Amor” – ishq, quyosh va o‘zga nur manbalarini harakatga keltiradi. Dantening tasavvurida u umuminsoniy axloq normalari-real borliqni ma’lum doirada saqlab turadi. Shunday qilib, ilohiy qudrat ramzi bo‘lgan Amor, Beatrichega bo‘lgan muhabbat, shoirning

umum bashariyat sirini anglab yetishiga yordam beradi. Shoir yaratgan buyuk Epopeyani Golenishev-Kutuzov: “Dante antik mualliflar an’anasini tiklab, koinot sirlarini ochishga erishdi. Jahon adabiyoti rivojining yangi yo‘llarini ochib beruvchi Dante dostonining inqilobiy mohiyati ham ana shundadir” deb to‘g‘ri baholaydi.

Dinlar madaniy inson ongi rivojlanishi bilan bu va u dunyoning tuzilishi, insonlar vafot etgandan keyingi taqdiri masalasiga qiziqish orta boradi. Bu masalada insoniyat tarixidagi har bir din o‘z ta’limotini ishlab chiqaradi. Bu dunyo tasvirida dunyo uch qism–osmon, yer va yer osti ba’zi o‘rinda “Yer ostidagi suvdan iborat deyilsa, narigi dunyo tasvirida o‘xshashlik kam bo‘lgan. Faqat gunohkorlar yer ostida, jahannamda jazolanadilar, taqvodorlar osmonda, jannatda bo‘ladilar” deyiladi. Ammo tafsilotni hech qaysi din batafsil ishlab chiqqan emas.

Dante italyan adabiy tilining ham yaratuvchisi hisoblanadi. Uning dostoni uslubida oddiy xalq tili oliy tabaqa kishilari tiliga xos tantanavorlik, rang-baranglik va dramatizm bilan uyg‘unlashib ketgan. Dante o‘z davridagi ijokorlardan farqli o‘laroq butun italyan millati nomidan gapirib, uning asriy orzu-armonlarini ifodalagan. Shuning uchun ham uning o‘rta asrning so‘nggi shoiri va ayni paytda, yangi davrning birinchi shoiri, deyishadi. Dante ijodi italyan adabiyoti va butun Yevropa madaniyati taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shoir ijodi adabiyotshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Dante asarlari jahon xalqlarining ko‘pgina tillariga tarjima qilingan. ”Ilohiy komediya” dostonining ”Do‘zax” qismi o‘zbek tilida Abdulla Oripov tarjimasida nashr etilgan.

Shoir o‘zi orziqib kutgan kunlar milliy qadriyatlarimiz, dinimiz va tilimizni qayta tiklash, xalqimizning ko‘p asrlik nodir merosi, urf-odatlarini yosh avlodga, qolaversa, ko‘p yillik mustabid tuzum asoratida yashagan zamondoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish masalasi kun tartibiga qo‘yiladigan onlar kelishini sabrsizlik bilan kutdi. Yillar davomida orttirgan ijodiy tajribasini shu yo‘lga safarbar etish orzusida tunni tongga uladi: Muqaddas Quroni Karim va hadislar, mo‘tabar qo‘lyozmalar, muazzam pandnomalar asrorini kashf etishga urindi. Chunki “Dante o‘z “Ilohiy

komediya” sining tashqi qurilishini tuzishda islom madaniyatidan bir qadar foydalangan. Ammo “Ilohiy komediya”ning ichki mazmuni nuqtai nazaridan ham Dante islom (Sharq) ta’siridan holi qolmadi”¹. Nihoyat mazkur durdonalar ko’ngliga solgan yolqin junbushga kelib, yana tarjima qalamini qo’lga oldi. Abdulla Oripov “Ilohiy komediya”dan tashqari, Pushkin, SHEvchenko, Qaysin Quliyev, Maxsatiy Ganjaviy, Sergey Boruzdin, Halil Rizo kabi adiblarning asarlarini o’zbek tiliga o’girdi va aytish mumkinki, tarjimonning bu jasorati, o’zbek tarjimachiligi zabt etgan ulug’vor cho’qqi deyishga arzirli.

Abdulla Oripov shu paytga qadar o’zbek xalqining ma’naviy mulkiga aylantirgan asarlar talaygina va ularning ko’pchiligini jahon adabiyoti durdonalarini tashkil etadi. Shu tariqa u rus, turk, ozarbayjon tillarini puxta o’zlashtirgan, ma’no tovlanishlarini chuqur his qila oladigan serqirra tarjimon sifatida nafaqat o’z ona vatanida, balki Sharq va G’arb mamlakatlarida tanildi. Xalqaro Dante mukofotini olgan shoir bu yuksak mukofotlarni nafaqat o’z mehnatlariga berilgan baho, balki jonajon xalqiga ko’rsatilgan hurmat-ehtirom namunasi deb biladi. Bu nodir asarlarning o’zbek kitobxoni ma’naviy dunyosiga kirib borayotganidan olam-olam quvonch, bahramandlik tuyadi, jonajon yurtiga erk baxsh etgan yaratganga shukronalar aytadi.

Ma’lumki, Dante ijodi insoniyatning kamolot sari tashlagan eng ulkan qadamlaridan biri bo’ldi. Shu sababdan Dantenin Yevropa adabiyotida ko’pincha payg’ambarlar bilan qiyos qilishadi va uning “Ilohiy komediya”sini jahon adabiyotida tengi yo’q yagona asar, deb e’tirof etishadi. Pushkin tili bilan aytganda, “Jahannam” bo’limidagi bir butunlikning o’ziyoq daho samarasi hisoblangan bu asar voqealari ko’rinishdan “narigi dunyo”da kechsa ham, uning markazida haqiqat axtargan jafokash inson, iqboli nigun dohiy san’atkor obrazi turibdi”. Shuning uchun bo’lsa kerak, bu asarni “Dantenoma” deb atashadi. “Ilohiy komediya” yozilgan davrlarda, komediya tushunchasi kulgi aralash sahna asarini

¹ Саломов Ф.Таржима назарияси асослари.Тошкент. 1983. 35-бет

emas, balki, umuman, badiiy shaklni, xususan, yirik she'riy lavhalarni ham anglatgan. Keyingi asrlardagina Bokachchio uni qayta nashrga tayyorlab, "Ilohiy komediya" deb atagan.

"Ilohiy komediya" she'riy shaklining nihoyatda murakkabligi (tersii), har satrda turfa xil ma'no anglatishi, son-sanoqsiz ism va timsollarning o'sha davr Yevropa tarixiy geografiyasi bilan chambarchas bog'lanib ketganligi va nihoyat, bir qarashda diniy tusga ega ekanligi sababli qadimgi Sharqda tarqalmay kelgan. Uning tarjimasi Sharqda keyin ham bo'lmagan.

Orzuga ayb yo'q deydilar. "Ilohiy komediya"ni o'zbek tilida ko'rish va o'qish ishtiyoqi ustun kelgani uchun uning tarjimasiga qo'l urildi. Ammo bu degani – "Ilohiy komediya" o'zbek tilida beqiyos jaranglaydi degani emas. Ehtimol, bu asar hali bir necha bor tarjima qilinir. Chunki tarjima nusxalari ko'paygan sayin buyuk ijodkorlar dahosining yangi-yangi qirralari ham ochilib borishi shubhasizdir.

Dantening «Ilohiy komediya»si yaratilganiga 700 yil bo'libdiki, o'z davrining badiiy qomusi bo'lgan bu asarga qiziqish, uni tadqiq etish tobora kuchaymoqda. Jahon Danteshunosligida 400 dan ortiq monografiya yozilganligi, Dante bilan shug'ullanadigan maxsus akademiyalar, institutlar mavjudligi, adibning hayoti va adabiy merosiga bag'ishlangan 1000 dan ziyod kitob yozilganligi ilm ahliga ma'lum. Poema Italiyaning o'zida 400 martadan ko'p chop etilgan. «Ilohiy komediya» kabi asarni xar bir xalk o'z tilida o'qishni orzu qiladi. Ammo bunga hamma ham muyassar bo'lmaydi, chunki bu asar boshqa tilga tarjima qilinishi mushkul bo'lgan dostonlar sirasiga kiradi. Asar tuzilishi, obrazlarning xilma-xilligi, uslubning nihoyatda mukammal va murakkabligi uchun ham shundaydir. Danteshunos O.Mendel'shtam «Dante xaqida suhbat» kitobida shunday yozadi: «Dante poemasi zamonaviy ilmu-irfon ma'lumi bo'lgan barcha fanning quvvatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Danteni mutolaa qilish, avvalo, mashaqqatli mehnat demaqqdir¹». Abdulla Oripov birinchi bo'lib bu mashaqqatli va ayni paytda, g'oyat sharaflı ishga qo'l urdi va buning

uddasidan chiqdi. Bundan yetti asr muqaddam boshqa zaminda yaratilgan asarni o'zbek o'quvchisiga yetkazish uchun faqat shoirlik iste'dodining o'zi kifoya qilmasligini yaxshi bilgan mutarjim bir necha yil qunt bilan tayyorgarlik ko'rdi, ilmiy va ijodiy izlanish olib bordi. Abdulla Oripov asl nusxa sifatida foydalangan M.Loziyskiyning ruscha tarjimasi, rus she'riyati qozongan katta zafar deb baholangan va tarjimon 1947 yilda bu ishi uchun birinchi darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi. M.Loziyskiy o'zigacha bo'lgan yuz yillik tajribaga suyangani, chunki ungacha o'nlab rus adiblari bu sohada kuchlarini sinab ko'rgan edilar. O'zbek mutarjimi uchun esa, Dante butunlay yangi olam, ochilmagan qo'riq. O'zbekcha tarjima bilan astoydil tanishish Abdulla Oripovning mashaqqatli mehnati va zo'r ijodiy yutuqqa erishganini ko'rsatadi.

Abdulla Oripov shunday deydi: Men tarjimachilik bilan ham shug'ullandim. Ushbu mashg'ulotimning eng asosiysi Dantening «Ilohiy komediya»si deb bilaman. Tarjima jarayoni men uchun eng ulug' maktab bo'ldi. Agar kog'oz ustida eng ko'p ter to'kkan bo'lsam, o'sha tarjima ustida to'kkanman. Ona tilimiznint naqadar boy ekanligiga imon keltirgan bo'lsam, o'sha tarjima jarayonida imon keltirganman. Azbaroi tarjima asl nushadan kam bo'lmasligi uchun tilimiz boyligidan imkon boricha to'liq foydalanish uchun izlandim, til xazinasidan so'zlar axtardim.

Shoh asarlar tarjimasi adabiy til uchun sinovdir. Chunki bunday vaqtda ona tilining ishlanganligi va imkoniyatlari qay darajada ekanligi ayon bo'lib qoladi. Ochig'ini aytganda, «Ilohiy komediya» singari yozma adabiyot obidalari tarjimasini har qanday til ham ko'tara olmaydi. O'zbek tili tarakkiyoti va she'riyatining hozirgi mavqei eng murakkab asarlarni tarjima etishga to'la imkon berishini Abdulla Oripov yana bir marta isbotladi. Darhaqiqat, o'ziga xos ramziy uslubda yozilgan «Ilohiy komediya» tarjimasida til masalasi dolzarb masala hisoblanadi. Zero, Dante «Italyan tilining otasi» sifatida nom qozongan mutafakkirdir.

Zamonaviy adabiy til - bu hozirgi soʻzlashuv normalariga rioya qilgan xalqning koʻp asrlik tilidir. Badiiy tarjima ana shu til bilan bunyodga keladi. «Ilohiy komediya» tarjimasiga kelganimizda esa, shuni aytish kerakki, bu asarning faqat oʻziga xos boʻlgan talablari ham bor. Masalan «Hamlet»ni yoki «Faust»ni eski iboralardan, arxaik uslubdan umuman foydalanmasdan turib tarjima qilganda ham ulardagi davr ruhini bersa boʻladi. Lekin «Ilohiy komediya»ning yoʻrigʻi boshqa. Bu allegorik asarda diniy iboralardan, ilohiy falsafiy tushunchalardan keng foydalanilgan. Mazkur poemaning tili oʻz zamonida ham oʻziga xos uslubga ega ramziy til sifatida maʼlum boʻlgan. Xuddi shu sababdan «Ilohiy komediya»ning oʻziga xosligini aks ettiradigan til uslubi tanlashga toʻgʻri keladi. Mutarjim Abdulla Oripov ham Dante yashagan davr ruhini, asardagi ramziy-majoziy lugʻatga asoslangan uslubni aks ettirish uchun ona tilining barcha qatlamlaridan, sheva va lahjalardan, oʻtmish adabiy til, kadimiy turkiy soʻzlardan juda unumli va oʻrinli foydalangan.

Majoziy tasvirlar, goh yoyiq goh yopiq va sirli istioralarni kayta yaratish orqali Abdulla Oripov Dante aytmqchi boʻlgan teran fikrlarni, ramziy ishoralarni, uning ruhiyatini oʻzbek kitobxoniga yetkaza olgan, shuning uchun ham tarjimada milliy kolorit ham saqlangan, davr ruhi ham berilgan, muallif uslubi ham toʻliq saqlangan. Mutarjimning xizmati shundan iboratki, Jamolungma choʻqqisidek zabt etish qiyin boʻlgan buyuk Dantening «Ilohiy komediya»sini ohorini ketkizmasdan oʻzbek xalqiga tuhfa kildi.

Abdulla Oripov va Dante ijodiy ruhiy uyg'unligi

Jahon soʻz sanʼatining zabardast namoyandasi Dante Aligyeri maʼnaviy hayotning qomusi sifatida nafaqat Gʻarbda, balki Sharqda ham katta qiziqish bilan oʻrganilib kelinmoqda. Uning “Ilohiy komediya” asarining oʻzbek tiliga oʻgirilishi taniqli shoir Abdulla Oripov tarjimonlik faoliyatining choʻqqisigina boʻlib qolmay, oʻzbek tarjima adabiyotining ulkan yutugʻi deb baholash mumkin. Turli mavzudagi purmaʼno rivoyat va hikoyatlar oʻrin olgani, chuqur mazmunli hikmatli soʻzlar va teran falsafiy mushohadalarga boyligi jihatidan dunyoning juda koʻp tillariga tarjima qilingan bu bebaho asar hayotni, inson qalbi va feʼl-atvorini anglash uchun oʻziga xos ochqichdir. “Ilohiy komediya” oʻzbek xalqi orasida ham mashhur boʻlib, badiiyat obidasining faqatgina taʼrifini eshitib kelgan oʻzbek oʻquvchilari nihoyat uni ona tillarida oʻqib, buyuk maʼnaviyat ummonidan bahramand boʻlish baxtiga erishdilar.

Oʻzbek xalqini Dante Aligyeri hayoti ijodi bilan tanishtirishda Abdulla Oripovning xizmatlari katta. U rus tarjimoni M.Lazinskiy oʻgiran “Ilohiy komediya”ni asliyatni saqlagan holda 11 hijoli tersina janrida tarjima qilishga muyassar boʻldi. Bu asar bir paytning oʻzida bir necha vazifani bajarganligi bilan ham eʼtiborga sazovor:

Birinchidan, u bizni Dante Aligyeri nomi bilan tanishtirdi – uning tarjimai holi, shaxsi va adabiy faoliyati bilan oʻrtoq etdi. Chunki oʻshangacha bu ulugʻ soʻz sanʼatkori haqida oʻzbek tilida yetarli maʼlumotga ega emas edik.

Ikkinchidan, “Ilohiy komediya” tarjimasi orqali shoir oʻzbek oʻquvchilariga “Jannatga yoʻl” dramatik dostonini hadya qildi.

Uchinchidan, Sharqona ifoda va uslubga, qizgʻin muhabbat va ayricha ehtiros bilan qiyomiga yetkazib tarjima qilgan Abdulla Oripov isteʼdodining yana bir qirrasini namoyon boʻldi.

Dante Aligyerining 99 qo‘shiqdan iborat, tersina janrida yaratilgan “Ilohiy komediya” asari meyoriga yetkazib tarjima qilinganligi tufayli tezda tilga tushdi.

“Ilohiy komediya” asari tersina –a-b-a-b-v-g-v-g (zanjir shakl) tarzda janrda qofiyalanadi. Asar tarjimasi orqali tersina vaznining ohangi va ritmi o‘zbek adabiyotiga kirib keldi. Bu imkoniyatdan ustalik bilan foydalangan tarjimon asarni ayni vaznning o‘zi orqali o‘zbekchalashtirish bilan tarjimaning asliyatga nafaqat mazmunan, balki shaklan ham muvofiq bo‘lishiga erishgan. Chunki “She’r bevosita ohangi orqali kishi ruhiga ta’sir etadi, kayfiyat uyg‘otadi. Inson esa mazmun va ma’noni, fikr va ma’lumotni qanday kayfiyatda qabul qilishi juda muhim. Bir fikrning o‘zi turli xil she’riy formaga solib ifodalansa, u holda har bir she’r odamga alohida ta’sir ko‘rsatadi va uning qalbiga boshqa-boshqa ruhiy kechinmalarni uyg‘otadi. Shu boisdan she’rlarning g‘oyaviy-estetik ta’siri ham har xil bo‘ladi”. Binobarin shakl va mazmunni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. “Shakl va mazmun – yaxlitlikda, dialektik birlikda mavjud hodisalardir. Modomiki, she’rning tarjimasi ham to‘rt muchasi butun mukammal asar bo‘lishi talab qilinar ekan, unda tarjima originalga muqobil holda shaklan ham mazmunan hamohang bo‘lishi darkor”¹.

Birinchi qo‘shiq (Voqea qisqacha tushuntirishdan boshlanadi)

Dante qorong‘i va zulmat o‘rmonda tun bo‘yi adashib, tongga yaqin u yerdan bir amallab chiqib oladi va yuksak tepalikka ko‘tarila boshlaydi. Ammo uning yo‘lini qoplon, arslon va qashqir to‘sib, qaytadan o‘rmonga qisib bora boshlaydi. Shunda shoirning ro‘parasida qadimgi dunyo shoiri Vergiliy paydo bo‘ladi va taskin so‘zlar aytadi. Uni Do‘zax va Arosatdan omon-eson olib o‘tajagini, Jannatga esa Beatriche olib kirajagini bildiradi. Shunday qilib, Dante Vergiliyning izidan ketadi.

¹ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. Тошкент 1980. 214-бет

Yerdagi umrimning yarmini yurib,
Zulmat vodiysida adashib qoldim.
Boqsam, bir o‘rmonga ketibman kirib.

O, uni nega ham yodimga oldim,
Dahshatlarga to‘la o‘rmon edi u,
Esdan chiqarolmay necha yil topdim.

misralari bilan boshlanadi va har bir misra raqamlanadi.

“Yerdagi umrimning yarmini yurib...” – inson umrining kamoli va zavoli xususida Dante o‘zining “Bazm” asarida so‘z yuritib, kamolotni 30 va 40 yosh orasida deb belgilaydi.

3 –**“Boqsam, bir o‘rmonga ketibman kirib”** – majoziy ma’noda. Italiyaning ijtimoiy-siyosiy muhitini bildiradi.

Ma’lum bo‘ladiki, asarning to‘liq tarjimasiga kirishganda tarjimon uni qayta ishlagan va asl nusxaga har jihatdan mos bo‘lishiga e’tibor bergan: “yurib” va “kirib”, “qoldim” va “oldim” so‘zlari qofiyadosh bo‘lib zanjir vazifasini bajargan. Vazn talabiga ko‘ra 11 bo‘g‘indan iborat bo‘lgan misralar o‘z asl holatida saqlangan Shoir “yonashib” so‘zini qo‘llaydi, ma’nosi “yondashib” bo‘lib, ularning barchasi ma’nodosh so‘zlar kitobiylikka xos ohang mavjud va bu tarjimonning topqirligidir.

“Ilohiy komediya”da xalq maqollari darajasidagi mazmunan teran va badiiy yuksak hikmatli misra va baytlar ko‘p – ularni bir yerga yig‘ib, mavzusiga ko‘ra joylashtirib chiqsa, insonga Allohni va o‘zini tanitadigan, olam va odam mohiyatini anglatadigan, yashash sir-sinoatlarini o‘rgatib, uni kamolot kasb etishga yo‘llaydigan o‘ziga xos “Hikmat kitobi” dunyoga keladi. Bu hikmatlar muqaddas kitobimiz Qur’oni Karim va Hadisi sharif kabi mo‘tabar chashmalardan suv ichgani, qomusi bilim va katta hayotiy tajriba asosida yaratilgani, kundalik turmush voqealari negiziga ko‘rilgani, xalqona soddalik, samimiyatga yo‘g‘rilgani, tasvir vositalariga boyligi,

xassos ruhi ravonligi, jarangdorligi va ta'sirchanligi bilan butun dunyo ilmu adib ahlini hayratga solib kelayapti.

Baland tog' bag'rida qiya qoyadan

Tushib keldi nogoh bir qoplon chaqqon,

Tanasi palakdek xol-xol g'oyatan.

“Tushib keldi nogoh bir qoplon chaqqon”- Dante uch nafar hayvonga duch keladi. Qoplon – soxtakorlik va sotqinlikni, arslon – magrurlik va zuravonlikni, qashqir – ochko'zlik va takabburlikni anglatadi.

Dante o'zining bundoq safarga tayyor emasligini idrok etib, ikkilana boshlaydi. Vergiliy esa bu yerga o'zining Beatriche tomonidan yuborilganini va Dantening Do'zaxdagi daxlsizligi uchun esa samovotda qayg'urishayotganligini bayon etadi. Shundagina Dante o'zining dastlabki qaroriga qaytadi va Vergiliy bilan mashaqqatli safarga yo'l oladi.

Ko'kda bir ayol bor - purhimmat, raso,

Uqubatli zot deb chekdi aziyat

Va hakam diliga soldi rahm, ziyo.

Rohila ikkimiz edik, ul hoziq

Rahmdil ***Lyuchiya*** lutf etib menga

Dedi:”Shukronamiz tinglasin holiq!”

Ko'kda bir ayol bor - purhimmat, raso,

Ko'kdagi ayol - Bibi Maryam.

Rahmdil ***Lyuchiya*** lutf etib menga

Rohila – Yoqubning xotini, Lyuchiya esa najot ma'budalaridan biri.

Shoir Do'zax darvozasi peshtoqida dahshatli lavhani o'qiydi va Vergiliy taskini tufayli ichkariga qadam qo'yadi. Vergiliy Dantega yalqov hamda pastkash kimsalar jazo tortayotgan Do'zax ostonasini ko'rsatadi.

Soʻngra ular Doʻzax daryosi Axeronga yaqinlashadilar. U yerda Doʻzax qayiqchisi Xaron mahkumlarni narigi qirgʻoqqa oʻtkazib qoʻyish bilan shugʻullanadi. Zilzila roʻy beradi, yashin chaqnaydi. Dante bexush yiqiladi.

Dahshatli momoqaldiraqdan sergaklangan Dante oʻzini birinchi doiraning kanorasida koʻradi. Soʻngra u xiristian diniga mansub boʻlmagan kishilar hamda choʻqintirilmagan bola - baqra joylashgan Limbga kirib boradi. Undan nariroqda esa Iso paygʻambar aqidasiga gʻayri boʻlgan qadimgi dunyo donishmandlari va qahramonlarini koʻradi. Ular orasida Sharq donishmandlaridan ibn Sino va ibn Rushd ham bor.

Alam yuragimni oʻrtadi taxir,
Shundoq ajib zotlar va necha buyuk,-
Limbo vodiysida kezishar faqir.

Doʻzaxning dastlabki doirasiga mansub xos joy – Limb. Tashqi, qorongʻi qismida xristian dinidan avval yashab oʻtgan zotlar hamda choʻqintirilmasdan oʻlib ketgan goʻdaklar joy olgan. Ichki, hashamatli qismida donishmandlar va qadimgi dunyo qahramonlari oʻrin olganlar.

Matnga yopishib olib, soʻzma-soʻz tarjima qilishga urinish badiiy tarjimada hech qachon muvaffaqiyat keltirmagan. “Kitobxon haqiqiy sanʼat asarini oʻqishni istaydi. Soʻzma-soʻz bajarilgan tarjima esa sanʼat namunasi boʻlolmaydi...” Shuning uchun tarjimashunoslar ichida matndan qancha uzoqlashsang, unga shuncha yaqinlashasan degan qoida mashhur. “Mutarjim muallif bilan huquq talashadigan darajada erkin va jurʼatli boʻlishi lozim. Tarjimonda jurʼat boʻlmasa, asl nusxaga ijodiy yondasha olmaydi”.

Maʼlumki, har qanday badiiy asar nafaqat gʻoya va mazmun, balki estetik maʼnodan ham iborat boʻladi. Chunonchi, keltirilgan misraning gʻoyasi – halollikka, toʻgʻrilikka, diyonatga ragʻbat boʻlsa, mazmuni – yerning eng halol, eng ishonchli omonat saqllovchi ekanligi, ekaningga hech qachon xiyonat qilmay, hamisha munosib tarzda uni qaytarishi. Estetik

ma'nosi esa ana shu g'oya va mazmunni o'quvchi ongiga o'tkazadigan ta'siri-yu qalbiga bag'ishlaydigan ma'rifiy ziyosi hamda shu orqali aqlda uyg'otadigan fikr xulosasi-yu xalqda qo'zg'atadigan zavqu-shavqi, ya'ni halollik, to'g'rilik va diyonatni ulug'ligi, inson hayotida muhim o'rin tutishi, insoniylik mezoni va hayot tayanchi ekanligi. Asarning g'oya-yu mazmunini har qanday tarjimon u yoki bu darajada tarjimada aks ettirishi mumkin, lekin estetik ma'nosini faqat iste'dodli va mahoratli mutarjimgina qayta yarata oladi. Shuning uchun "she'riy tarjima haqida gapirganda mazmunning qanday saqlanganiga emas, balki estetik ma'no qay darajada qayta yaratilganiga qarab baho berish lozim". Abdulla Oripov tarjimalari g'oya-yu mazmunninggina emas, estetik ma'noning ham asliyatga muvofiq tarzda mahorat bilan qayta yaratilganligi adabiyotning tarkibiy qismiga aylanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

She'riy tarjimaning tarjimashunos sinchkovlik bilan tadqiq etishi, tahlil qilish kerak bo'lgan nozik tomonlari ko'pki, ularni nazardan qochirish tarjimonning mehnatini munosib baholamaslik, uni nohaq tanqid qilishga olib kelishi shubhasiz.

She'rning butun badiiy go'zalligi, tarovati, ta'sirchanligi, jarangi qofiya bilan. "Ilohiy komediya" tarjimasida Abdulla Oripov ko'plab pishiq-puxta, go'zal, ta'sirchan va ohangli qofiyalarni mahorat bilan topib qo'llagan: ichin – lekin, tomon – beomon, o'tib – etib, gal – mahal, nafas – bas, qator – nolakor, hoja – debocha, nag'modin – dahmadin, afsus – mahbus, avrasin – na'rasin, bahrida – bag'rida, bosimi – merosimi va boshqalar shular jumlasidandir. Shunday salmoqli asarni boshdan oyoq to'q qofiyalar topib tarjima qilish oson emas. Shuning uchunmi tarjimon ko'plab baytlarni och qofiyalar bilan o'zbekchalashtiradi. E'tirof etish kerakki, och qofiyalar borasida ham tarjimon ancha ko'rsatgan – ularning ko'pi yangi va betakrorligi bilan e'tiborni tortadi: dengiz – cheksiz, undan – xumdan, yurt – qut, tinmadi – himmati, bo'lmading – ulfating, ko'rgani – pardani, titratur – ichradi, falon – tamom, egam – degan, molmiding – olmading, mustaqim –

qismatim, esa – o‘sha, yubqadir – beshubhadir va hokazo. Biroq barcha baytlar ham ana shunday to‘q va och qofiyalar bilan muvaffaqiyatli tarjima qilinmagan. Tarjimon ko‘pincha mazmunga asosiy etiborni qaratib, qofiyaning nazardan qochiradi. Bundan tarjimonning Alisher Navoiy ta‘biri bilan aytganda, “qofiya ehtiyoti va muqayyad emas”ligi ma‘lum bo‘ldi. Holbuki, sharq she‘riyatida qofiyaga shunchalik katta e‘tibor berilganki, hatto qofiya ilmi alohida fan tarmog‘i sifatida rivojlangan. Atoyining shoh baytlari sirasiga kiruvchi:

Ul sanamkim, suv qirg‘og‘inda paridek o‘lturur,
G‘oyati nozikligidin suv bila yutsa bo‘lur,–

misralaridagi “o‘lturur” – “bo‘lur” so‘zlarini tandir qilib, “qofiyasida aybg‘inasi bor” – degan Alisher Navoiy Abdulla Oripov g‘arb adabiyotining gulto‘ji bo‘lgan “Ilohiy komediya”ni misralarini qofiyaga solish, munosib qofiya topish oson emas, lekin belni bog‘lab astoydil izlansa, topilmaydigan so‘zu qofiyaning o‘zi yo‘q, – deb xulosaga keladi.

Tarjimadagi vazniy xatolar yo‘q bo‘lib tersinada yozilgan misralar asliyatdagidek. Bu ham tarjimonning shakl jihatidan muvaffaqiyatga erishganidan dalolat beradi.

O‘zbek adabiyoti uzoq asrlar mobaynida g‘arb adabiyoti bilan o‘zaro aloqada rivojlangan. Buning erkin misolini G‘afur G‘ulom va Abdulla Oripov ijodida ko‘rish mumkin: Bu ikki zabardast shoir ijodida qadim turkiy, forsiy va adabiy so‘zlar nisbati juda yuqori, forsiy ifodalarga ham tez-tez duch kelamiz. Uchinchidan, biz mumtoz adabiyot namunalarini maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida uchratamiz, mustaqil o‘qiymiz, demak, ma‘lum miqdorda arxaik so‘z boyligimiz bo‘lishi tabiiy. Axir, til nafaqat yangi qabul qilingan so‘zlar, balki iste‘moldan chiqib ketgan ba‘zi so‘zlarga qayta hayot bag‘ishlash hisobiga ham boyishi shubhasiz. Shuning uchun klassik asarlar tarjimasida qadimgi so‘zlardan

unumli va o‘rinli foydalangan tarjimonlarimizning ishini ma’qullaymiz—deb yozgan edi Najmiddin Komilov. Abdulla Oripov tarjimalari ham ana shunday sof sharqona so‘zlarga boyligi jihatidan alohida badiiy estetik ta’sirchanlikka ega.

Janglar sababkori, eng go‘zal ayol –
Yelena manovdir. Bu – jasur Axill,
Muhabbat dastidan topgandi zavol.

Bu – Paris-Tristan. Ustoz xilma-xil
Qavmu to‘dalarni ko‘rsatdi rosa, -
Ular hirs yo‘lida bo‘lganlar sabil.

“Janglar sababkori, eng go‘zal ayol” – Yelena, Melayning xotini. Paris tomonidan o‘g‘irlanib, Troya urushining sababchisi bo‘lgan. A x i l l – Gomer “Iliada”sining bosh qahramoni. T r i s t a n – qirol tog‘asi Markning bo‘lg‘usi xotini Izolda bilan zino qilgan.

Mumtoz shoirlar asarlarini tarjima jarayonida batamom zamonaviylashtirish o‘zini oqlamaydi, axir biz ularni zamonaviy shoirlar kabi qabul qilolmaymiz, nimadir mazkur asarlarning o‘tmish adabiyoti namunasi ekanligi va ular yaratilgan tarixiy davrni eslatib turishi kerak. Lekin bu borada, shoir aytganidek, muayyan meyor bo‘lishi kerakki, Abdulla Oripov tarjimalari uchun ana shu meyorga rioya qiladi. Shuning uchun adabiy jarayonda, adabiyot muxlislari orasida “Abdulla Oripov tarjimasida forsiy so‘zlarni ko‘p ishlatadi” – degan gaplar yurishi bejiz emas. Chunki u ko‘pincha butun-butun misra va baytlarni deyarli forsiy so‘z, ibora va izofalar bilan shundoqqina o‘zbekchaga o‘tkazib ketaveradi.

Albatta asarning yangi “A’rof”nashrini chop etishga tayyorlar ekan tarjimon ko‘ngli to‘lmagan o‘rinlarni qayta ko‘rib chiqqan va bir qator

topilma yangi soʻzlar yaratgan. Jumladan, shakliy janrni saqlagan holda italyancha, ruscha soʻzlarning oʻzbekcha muqobili bilan almashtirgan.

Oʻz-oʻzidan, kichik bir tadqiqotda shunday ulkan asar tarjimasining barcha yutuq va kamchiliklari haqida fikr yuritishning imkoni yoʻq. Shuning uchun biz ularning baʼzilari xususida toʻxtaldik, xolos. Koʻrsatib oʻtilgan bu yutuqlar aslida tarjimaning yutuqlari oldida quyosh oldida zarra, dengiz olida qatra kabi gapdir. Eng muhimi, jahon soʻz sanʼatining durdona asarlaridan biri boʻlgan “Ilohiy komediya”ning oʻzbek tiliga asliyatga xos shakl va mazmun biriligini, badiiy tarovati va jarangini saqlagan holda mahorat bilan tarjima qilinishi – oʻzbek adabiyotining yana bir bebaho asar bilan boyitilishidir. Uni oʻzbekchalashtirish bilan Abdulla Oripov bir alp tarjimonning ishini amalga oshirdi. Bu adabiy-madaniy hayotimizdagi ulkan hodisa boʻlib, hali mazkur tarjima ustida maxsus tadqiqotlar yaratilib, asar badiiyati va tarjimon mahoratiga munosib baho berilishi va uning oʻzbek tarjima adabiyotidagi mavqe maqomi belgilanishi tayin.

“Badiiy adabiyotning namunalarini, xususan, klassikani shunday tarjima qilaylikki, ularning umri boqiy boʻlsin. Tarjima klassikasining bizda hozirgacha mavjud boʻlmagan oltin fondini yaratishimiz kerak” – deb yozgan edi bir paytlar taniqli adib Asqad Muxtor. Bizningcha bunday fond allaqachon yaratilgan va yangidan yangi goʻzal tarjimalar bilan boyib borayapti. Hozirgacha jahon adabiyotining “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna”, “Iliada” “Ilohiy komediya”, “Dekameron”, “Don Kixot”, “Hamlet”, “Otello”, “Faust”, “Urush va tinchlik” kabi shoh asarlari tilimizga tarjima qilinib oʻquvchilarning sevimli asarlariga aylangan va oʻzbek tarjima adabiyotining oltin fondidan joy olgan edi. Ular qatoriga qoʻshilgan “Ilohiy komediya” tarjimasi bu oltin fondning eng bebaho namunalaridan biri ekanligi shubhasiz.

Birinchi bobni quyidagi fikrlar bilan yakunlay mumkin: Soʻzning tom maʼnosida xalq shoiri, zamonaviy oʻzbek adabiyotining oʻlkan namoyandasi A.Oripovning ijodiy qiyofasi faqat sheʼrlar-u dostonlar bilan cheklanib qolmaydi.

Uning she'riyat mavzusiga, adabiyotimizning atoqli vakillari G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, U.Nosir ijodiga doir maqola va suhbatlari, davrning o'tkir masalalariga bag'ishlangan publitsistik ijodi ham fikrlashdagi o'ziga xoslik, topqirlik va zukkoligi bilan ajralib turadi. U dunyo adabiyotining mumtoz namunasi Dantening «Ilohiy komediya»sini mahorat bilan o'zbekcha so'zlatishdan tashqari, Ukrain mumtoz shoirasi L.Ukrainkaning «Mag'oralarda» drammatik dostonini, vengr dramaturgi Y.Xeltanning «Soqov ritsar» she'riy dramasini hamda N.Ganjaviy, Pushkin, SHEvchenko, K.Kuliyev va boshqa shoirlarning she'rlarini tarjima qildi. Uning bu sohadagi faoliyatini ko'zdan kechirish asosan o'z ruhiga yaqin asarlarni tarjima qilishga intilganligini ko'rsatadi. Shu boisdan ham ular mahorat bilan o'girilgan, asl nushaning ifori to'kilmasdan xuddi aslan ona tilimizda yaratilgandek tuyuladi.

UMUMIY XULOSA

“Iloiy komediya” asari misolida Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati haqida ayrim fikr-mulohazalar bildirilib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Badiiy tarjima adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning bir ko'rinishi sifatida adabiyotlarning taraqqiyoti uchun xizmat qilib kelgan.
2. O'zbek adabiyotida badiiy tarjimachilik qadimiy an'analarga ega va o'zbek adabiyotida badiiy tarjimachilik ko'plab taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirgan.
3. XX asr o'zbek tarjimachiligi taraqqiyotida Abdulla Oripovning badiiy tarjima sohasidagi faoliyati muhim o'rin tutadi.
4. Abdulla Oripov tarjimalarida ko'plab o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Bunday xususiyatni eng avvalo, mohir tarjimonning adabiy namunalarini tarjima qilinishida ko'rish mumkin.
5. Abdulla Oripovning rus tilini puxta bilishi, uning tarjima doirasining kengligini ta'minlaydi.
6. Abdulla Oripov o'z tarjimalarini asosan rus, ozarbayjon, qozoq, qoraqalpoq tillaridan amalga oshirgan.

7. Abdulla Oripovning rus tilidan qilgan tarjimalari orasida Dantening “Ilohiy komediya” asarining tarjimasi alohida ahamiyatga ega va “Ilohiy komediya” asari tarjimasi o‘zbek kitobxonlari uchun noyob hodisaga aylandi.

8. Abdulla Oripov “Ilohiy komediya” tarjimasi orqali o‘zbek adabiyotiga tersina janrini olib kirdi.

9. Abdulla Oripov “Ilohiy komediya” asarini tarjimasiga kirishishidan oldin ko‘plab rus shoirlarining asarlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irganлиги buyuk badiiy obida “Ilohiy komediya” tarjimasiga o‘ziga xos tayyorgarlik deb baholash mumkin.

10. Abdulla Oripov “Ilohiy komediya” tarjimasi jarayonidagi mahorati uning asaridagi o‘ziga xos shakliy xususiyatlar bilan birga, undagi ma’no-mazmun va ruhiyatni saqlashga katta e’tibor qaratganligida namoyon bo‘ladi.

11. Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati shuningdek, Dantening “Ilohiy komediya”sidagi rus tilida ifodalangan badiiy xususiyatlarini aksar hollarda o‘zbek tili orqali bimalol aks ettirib berganida aniq ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И. Истиқлол ва маънавият. Т. «Ўзбекистон» 1994.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Т. «Ma'naviyat», 2008.
3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar.To'rt jildlik.Tarjimalar. Toshkent. 2001
4. Abdulla Oripov. Adolat ko'zgusi. She'rlar, suhbatlar.Toshkent 2005.
5. Абу Али ибн Сино. Шеърят. Тошкент. 1980
6. Абдулла Орипов. “Жаннатга йўл”.Драматик достон.Тошкент. 1980.
7. Абдулла Орипов. Танланган асарлар.Тўртинчи жилд. Тошкент. 2001
8. Саломов Ғ. Таржима назарияси. Мақолалар тўплами.Тошкент. 1980.
9. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. Тошкент. Фан. 1980
10. Саидов А. Данте - юрист. Тошкент. 2012.
11. Саломов Ғ.Таржима назарияси асослари. Тошкент 1983.
12. Сергей Баруздин. Тошкент.Одамлар.Эр киши.Фил.Бор гап. – “Тошкент оқшоми”, 1983 йил 9 сентябрь.
13. Ойбек ижодининг маърифий аҳамияти. Қарши. 2005
14. Данте Алигъери. “Илоҳий комедия. Дўзах”.Таржима.Тошкент. 1975.
15. Леся Украинка. Мағораларда (Шеърый драма). “Тошкент оқшоми”, 1972 йил, 13 март (Парча), “Шарқ юлдузи”, 1972 йил 3-сон.
16. Еньё Хельтан. Соқов рицарь (Шеърый драма) – “Нажот қалъаси” тўплами.
- 17.Тарас Шевченко. “Ҳавас қилма сармоядорга...” Ишонч кўприклари” тўплами.
18. Қайсин Қулиев. Ҳайрат. “Тошкент оқшоми”, 1971 йил 22 ноябрь.
19. Махсатий Ганжавий. Рубоийлар. “Ишонч кўприклари” тўплами.
20. Халил Ризо. Низомий. Юртим учун. “Совет Ўзбекистони”, 1979 йил 5 декабрь.
21. Ҳикмат. Янгилик. Тўғри башорат. Дунё. “Жаҳон адабиёти”, 1999, 6-сон